

02-11/84  
17.12.2024



"TASDIQLAYMAN"  
Ilmiy-ekspert kengashi raisi  
T. Kuziyev  
2024-yil " " \_\_\_\_\_

Ilmiy-ekspert kengashining navbatdan tashqari yig'ilish  
BAYONNOMASI № 21

2024-yil 26-noyabr

Toshkent shahri

**Raislik qiluvchi:** T.Kuziyev – Ilmiy-ekspert kengashi raisi;

**Qatnashdilar:** Ilmiy-ekspert kengashi a'zolari: X.Sultonov onlayin qatnashdi I.Yusupov, F.Usmonov, M.Mumin-Axunova, M.Saidov hamda B.Raxmanov

**Qatnashmaganlar:** Sh.Pidayev va A.Kuranov.

**Mas'ul kotib:** X.Haydarov.

**KUN TARTIBI:**

1. Farg'ona viloyati, Quva tumanida joylashgan "Xo'jam Podshoh qadamjosi" va "Xotira yodgorligi" madaniy meros obyektlarida rekonstruksiya ishlari loyihasi.

**Asos:** Farg'ona viloyati madaniy meros boshqarmasining 12.11.2024-yildagi 01-10/527-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

2. Jizzax viloyati, Sharof Rashidov tumani, "Ko'rpasoy" qishlog'ida joylashgan "Abu Said masjidi binosi"ni moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritish taklifi.

**Asos:** Jizzax viloyati madaniy meros boshqarmasining 08.11.2024-yil № 01/29 xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

3. Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi, 74-manzilda joylashgan "Respublika agrosanoat oliv o'quv muassasi binosi"ni moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatidan chiqarish taklifi.

**Asos:** Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 15.11.2024-yil № 01-02/858 xati hamda boshqarmaning dastlabki xulosasi.

4. Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, "Maxtumquli" ko'chasi, 45-manzilda joylashgan "O'zbekiston mehmonxonasi binosi" hamda uning yonida joylashgan bugungi kunda qayta rekonstruksiya qilinayotgan binoni o'rganish bo'yicha fuqoro murojaati.

**Asos:** Fuqaro M.Sa'dullayevning 22.11.2024-yildagi murojaati.

5. Toshkent shahar, Shayhontoxur tumani, "Katta bog" ko'chasi, 58-manzilda joylashgan "Eshonguzar jome' masjidi" hududida namozgoh va noturar binolar qurish loyihasi.

**Asos:** Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 15.11.2024-yil № 01-02/851 xati hamda boshqarmaning dastlabki xulosasi.

**6.** Buxoro shahar, “Mehtar Ambar” ko‘chasida joylashgan “Kovshi Olak hammomi qoldiqlari” devoriga tayanch o‘rnatish ishlari loyihasi.

**Asos:** Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasining 14.11.2024-yil № 04-KM/2236 xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

**7.** Namangan viloyati, Norin tumani, Uchtepa MFYda joylashgan “Uchtepa-2” arxeologiya yodgorligining muhofaza hududida qurilishi rejalashtirilgan “Quraysh ona” maqbarasi loyihasi.

**Asos:** Namangan viloyati madaniy meros boshqarmasining 13.11.2024-yil № 612 xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

**8.** Andijon viloyati, Qo‘rg‘ontepa tumani, Jannatbulloq MFYda joylashgan “Yunus ota ziyoratgohi” madaniy meros obyektida restavratsiya ishlari loyihasi.

**Asos:** Andijon viloyati madaniy meros boshqarmasining 18.11.2024-yil № 01-06/205 xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

**9.** Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani, Pandiron MFY hududida joylashgan “Pandiron masjidi binosi” madaniy meros obyektini restavratsiya qilish loyihasi.

**Asos:** Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasining 20.11.2024-yil 01/217-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

**10.** Toshkent shahar, Chilonzor tumani, 17-mavze, 50, 51, 52-uylar devoridagi mozaika kompozitsiyalarini moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritish masalasi.

**Asos:** Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 25.11.2024-yil № 01-02/882 xati hamda boshqarmaning dastlabki xulosasi.

### **Kun tartibidagi masalalarni atroflicha o‘rganib, muhokama qilib,**

### **Ilmiy-ekspert kengashi**

### **QAROR QILADI:**

**1.** Farg‘ona viloyati, Quva tumanida joylashgan “Xo‘jam Podshoh qadamjosi” va “Xotira yodgorligi” madaniy meros obyektlarida rekonstruksiya ishlari loyihasi;

-loyihalashtirilgan bino rekonstruksiya ishlari Farg‘ona an’anaviy me’morchiligiga mos ekanligini inobatga olib, loyiha ma’qullansin.

**2.** Jizzax viloyati, Sharof Rashidov tumani, “Ko‘rpasoy” qishlog‘ida joylashgan “Abu Said masjidi binosi”nii moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritish taklifi;

“Abu Said masjidi” binosi arxitekturaviy ko‘rinishi, binodagi mavjud ustunlar madaniy qimmatga ega emasligi hamda tarixiy ahamiyati bo‘yicha to‘liq va asosalangan ma’lumotlar yo‘qligi bois ushbu avriya holatga kelib qolgan binoni moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritish taklifi rad etilsin.

**3.** O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” 30.08.2001-yildagi 269-II-son qonuni 14-moddasida moddiy madaniy meros obyektini moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarish, agar obyekt **jisman to‘la yo‘qotilgan**

**bo‘lsa yoki moddiy madaniy meros obyekti sifatidagi o‘z qimmatini yo‘qotgan bo‘lsa**, tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, “Buyuk Ipak Yo‘li” ko‘chasi, 74-manzilda joylashgan “Respublika agrosanoat oliv o‘quv muassasasi binosi” madaniy meros obyekti moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatidan chiqarish amaldagi qonunchilik normalariga zid bo‘lganligi bois rad etilsin.

**4.** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, “Maxtumquli” ko‘chasi, 45-manzilda joylashgan “O‘zbekiston mehmonxonasi binosi” hamda uning yonida joylashgan bugungi kunda qayta rekonstruksiya qilinayotgan binoni o‘rganish bo‘yicha fuqoro murojaati:

-Fuqaro M.Sa’dullaev “O‘zbekiston mehmonxonasi binosi” madaniy meros obyektining orqa tomonidagi muhofaza hududida avvaldan mavjud bo‘lgan inshootda bugungi kunda amalga oshirilayotgan qurilish yuzasidan Madaniy meros agentligiga qilgan murojaati ma’lumot uchun qabul qilinsin;

Ilmiy-ekspert kengashining 2024-yil 28-iyundagi 12-son bayoni 6-bandida ko‘rib chiqilgan loyiha bo‘yicha ishlari olib borilayotganligi yuzasidan Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi o‘rnatilgan tartibda o‘rganib chiqib, Madaniy meros agentligiga va Ilmiy-ekspert kengashiga tegishli ma’lumotlarni taqdim etishi ta’mirlansin.

Madaniy meros agentligining Davlat nazorati bo‘limi “O‘zbekiston mehmonxonasi binosi”da olib borilayotgan ta’mir-tiklash ishlari bo‘yicha vakolat doirasida Davlat nazoratini amalga oshirishi tavsiya etilsin.

**5.** Toshkent shahar, Shayhontoxur tumani, “Katta bog” ko‘chasi, 58-manzilda joylashgan “Eshonguzar jome’ masjidi” hududida namozgoh va noturar binolar qurish loyihasi;

-loyihalashtirilgan bino bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi musulmonlar idorasi va O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining ruxsatnomasini olish sharti bilan ma’qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

**6.** Buxoro shahar, “Mehtar Ambar” ko‘chasida joylashgan “Kovshi Olak hammomi qoldiqlari” devoriga tayanch o‘rnatish ishlari loyihasi;

-loyihalashtirilgan rekonstruksiya ishlari Buxoro an’anaviy me’morchilik an’analariiga mos ekanligini inobatga olib loyiha ma’qullansin.

**7.** Namangan viloyati, Norin tumani, Uchtepa MFYda joylashgan “Uchtepa-2” arxeologiya yodgorligining muhofaza hududida qurilishi rejahashtirilgan “Quraysh ona” maqbarasi loyihasi;

-loyihalashtirilgan maqbara yer maydoni bo‘yicha arxeologik qazishma ishlari xulosasini olgan holda taklif etilgan 2 raqamdagagi maqbarani ishchi chizmalarini Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi 295-son qarori bilan belgilab qo‘yilgan mezonlar asosida qayta ishlab chiqilib, Ilmiy-ekspert kengashi muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

**8.** Andijon viloyati, Qo'rg'ontep tumani, Jannatbuloq MFYda joylashgan "Yunus ota ziyoratgohi" madaniy meros obyekti restavratsiya ishlari loyihasi;

-loyihalashtirilgan rekonstruksiya ishlari Andijon an'anaviy me'morchiligiga mos ekanligini inobatga olib, loyiha ma'qullansin.

**9.** Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani, Pandiron MFY hududida joylashgan "Pandiron masjidi binosi" madaniy meros obyekti restavratsiya qilish loyihasi;

-loyihalashtirilgan restavratsiya ishlari Qashqadaryo an'anaviy me'morchiligiga mos ekanligini inobatga olib, loyiha ma'qullansin.

**10.** Toshkent shahar, Chilonzor tumani, 17-mavze, 50, 51, 52-uylar devoridagi mozaika kompozitsiyalarini moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritish masalasi;

-mozaika kompozitsiyalari bo'yicha O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasining tegishli xulosasi hamda kompozitsiyani yaratishda qo'llanilgan materiallarini aniqlagan holda Vazirlar Mahkamasining 29.07.2002-yildagi 269-son hamda 20.05.2024-yildagi 295-son qarori qarori bilan belgilab qo'yilgan mezonlar asosida hujjatlarni tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish hamda tasdiqlash uchun Ilmiy-ekspert kengashi muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

**Kengash mas'ul kotibi**

X. Haydarov

